DORIVOR O‘SIMLIKLAR VA ULARNING ORGANIZMDAGI AHAMIYATI.

Isakov G‘ofurjon To‘lqinjon o‘g‘li
CAMU xalqaro tibbiyot universiteti assistenti
gofurjonisakov1991@gmail.com
Erkinova Gulnoza Xursandbek qizi
CAMU xalqaro tibbiyot universiteti talabasi

Anotatsiya: Ushbu maqola dorivor o‘simlik turlari ularning organizmga tasir etishdagi foydali va zararli tomonlari haqida.

Kalit so‘zlar: Dorivor gulxayri, tuxumsimon zupturum, matabolik sindrom, eksport hajmi, angelina, klimakterik balog‘at, ayollar jencheni, arxaro‘t, to‘ksin, qushtirnoq.

Abstract: This article is about medicinal plant species and their beneficial and harmful effects on the body.

Key words: Medicinal flower, ovoid zupturum, metabolic syndrome, export volume, angelina, climacteric puberty, female ginseng, arkharot, toksin, kushtirnoq.

Аннотация: В данной статье речь идет о видах лекарственных растений, их полезном и вредном влиянии на организм.

Ключевые слова: Лекарственный цветок, zupturum яйцевидный, метаболический синдром, объем экспорта, ангелина, климактерический период полового созревания, женский женьшень, архарот, токсин, куштирнок.

KIRISH.

Dorivor o‘simliklar — odam va hayvonlarni davolash, kasalliklarning oldini olish uchun, shuningdek, oziq-ovqat, atir-upa va kosmetika sanoatida ishlatiladigan o‘simliklar — giyohlar. Yer yuzida dorivor o‘simliklarning 10—12 ming turi borligi aniqlangan.1000 dan ortiq o‘simlik turining kimyoviy, farmakologik xossalari tekshirilgan. O‘zbekistonda dorivor o‘simliklarning 700 dan ortiq turi mavjud. Shulardan tabiiy sharoitda o‘sadigan va madaniylashtirilgan 120 ga yaqin o‘simlik turlaridan ilmiy va xalq tabobatida foydalaniladi. Hozirgi davrda tibbiyotda qo‘llaniladigan dori-darmonlarning qaryib 40—47% o‘simlik xom ashyolaridan olinadi. [1]

Gulxayri (Althaea) — gulxayridoshlarga mansub bir yillik va ko‘p yillik o‘tlar turkumi. Yevropa va Osiyoning o‘rta mintaqalarida 12 turi o‘sadi. O‘zbekistonda gulningning bitta ekma va 7 ta yovvoyi turi bor. Gulhayridoshlar to‘qaylarda, sug‘oriladigan maydonlarda va boshqa yerlarda uchraydi. Gullari to‘g‘ri, 5 bo‘laqli, ikki jinsli. Gulhayri guli dorivor, manzarali o‘simlik, undan bo‘yoq olinadi. O‘zbekistonda G.ning A. rosea turi manzarali va dorivor o‘simlik sifatida ko‘p eqiladi. Poyasi 1,5—2 m, yo‘g‘on, tuklar bilan qoplangan. Barglari 3—7 bo‘laqli, uzun bandli. Gullari yakka-yakka yoki 2—3 tadan barg qo‘ltig‘ida va poya ichida o‘rnashgan. Tojbarglari qat-qat joylashgan.Iyun—avg.da gullab, iyul—sent.da

urug‘laydi. Tojbarglaridan vino, sirka va b.ga rang berishda hamda teri, shoyi va jun kabilarni bo‘yashda foydalaniladi. G.ning A. offi cinalis turi dorivor o‘simlik sifatida tibbiyotda foydalaniladi. Uning ildizidan tayyorlangan suyuq ekstrakt nafas yo‘llari kasalliklarida (ayniqsa bolalarda) balg‘am ko‘chirish, ko‘krakni yumshatish uchun va yallig‘lanishga qarshi, me’da-ichak kasalliklarida esa o‘rab oluvchi dori sifatida ishlatiladi. [2]

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Tuxumsimon zubturum (lat. Plantago ovata) — Zubturumdoshlar (Plantaginaceae) oilasiga mansub. Tuxumsimon zubturum O‘rta yer dengizida, Kanar orollarida, Hindiston, Eron, Afg‘oniston, Pokistonda yovvoyi holda va AQSHda madaniy holda o‘sadi. O‘simlikning urug‘lari spastik va atonik ich qotishida yumshatuvchi vosita sifatida va surunkali kolitda, shamollash va dioreyada, metabolik sindrom bilan og‘rigan bemorlarning ratsionida ishlatiladi.

2019-yilda eksport hajmi 207,1 million dollardan oshdi, Hindiston davlati asosiy eksportchi hisoblanadi. Ushbu o‘simlikning O‘zbekiston Respublikasida boshqa turlari mavjud. [3]

Angelika yoki Arharo‘t (lat.Angelica) – Ziradoshlar (Apiaceae) oilasiga mansub. Ko‘pgina turlarining ildizida kumarin va oshlovchi moddalar mavjud. Ba’zi turlari dorivor sifatida ishlatiladi. Xitoyda arharo‘tni “ayollar jensheni”, “ayollar o‘simligi” va “xitoy o‘simliklari malikasi” deb nomlanadi. Ayollarda klimakterik va balog‘at davrlarida garmonal muvozanatni tiklashga yordam beradi. Xitoy arharo‘ti kardioprotektiv samara beradi. Arharo‘t qon aylanishini normallashtiradi, qon tomirlarida tromblar hosil bo‘lishini oldini oladi. Arharo‘t tarkibidagi biologik aktiv polusaxaridlar oshqozon va o‘n ikki barmoqli ichakda yara hosil bo‘lishini oldini oladi va jigarni toksinlardan himoya qiladi. 2019-yil jahonda 31,8 mln. dollarlik eksport qilingan. Xitoy davlati asosiy eksportchi hisoblanadi. [3]

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Rossiya Federatsiyasi o‘rmon kodeksining 34-moddasida yovvoyi o‘sadigan dorivor o‘simliklar oziq-ovqat o‘rmon resurslari sifatida tasniflanadi. Dorivor o‘simliklardan tibbiy foydalanishda kompozitsiya muammosi mavjud. Yovvoyi o‘simliklarni yig‘ishda xavfli moddalar tasodifiy hududda paydo bo‘lishi mumkin, masalan, yaqin atrofdagi poligondan og‘ir metallar. Farmakologik maqsadlarda dorivor o‘simliklar sanoat usulida tuproq tarkibi nazorat qilinadigan maxsus uchastkalarda o‘stiriladi [4].

Qushtirnoq Xalq tabobatida o‘simlikning gul savatchalaridan tayyorlangan damlamalar jigar, taloq, me’da va ichak kasalliklarini davolashda ishlatiladi. O‘simlik gullaridan tayyorlangan damlamadan kishi badani kuyganda, sovuq

urganda, turli yaralarda (xo‘ppoz, chipqon, ko‘ziko‘k, sizlog‘ich, xasmol va boshqa) vanna, primochka, kompress qilinadi. Damlama bilan og‘iz bo‘shlig‘i chayqaladi, undan klizma qilish ham mumkin.

Uy sharoitida qushtirnoq gullaridan dori-darmon tayyorlash uchun og‘zi yopiladigan haroratga chidamli idishdagi 2 stakan qaynoq suv ustiga qushtirnoq gulidan 2 choy qoshiq solib, 15 daqiqa davomida damlab qo‘yiladi. So‘ngra damlama dokadan o‘tkazilib suziladi. Damlamadan kuniga 4 mahal yarim stakandan ichiladi. Yoki 400 gr qaynoq suvga 20 gr maydalangan gulidan solib, 10 daqiqa qaynatiladi. Qaynatma sovugach suzib olinadi. Undan kuniga 1 osh qoshiqdan 3 mahal ichish kerak.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Qrim, Kavkaz, O‘rta Osiyo, Shimoliy Afrika va O‘rta dengizning toshloq yerlarida ko‘p tarqalgan. Janubiy Yevropada ekiladi. K.ning g‘unchasi, mevasi sirkalab yoki to‘zlab ovkatga solinadi. Mevasida 18% oqsil moddalar, 36% cha moy bor. Cho‘l va adirlarda, yo‘l bo‘ylarida, devorlar ustida, ekinlar orasida o‘sadigan kovul ko‘p urug‘li rezavor bo‘lib, mevalari etdor, uzunligi 2 smga boradi. Iyul-avgust oylarida urug‘lari pishadi. Bu dorivor o‘simlikning mevalari tarkibida saponinlar, alkaloidlar, 32,9 foiz uglevodlar, 150 mg askorbin kislota, 3,75 foiz moy, ildiz po‘stlog‘ida staxidrin alkaloidi mavjud.Kovul yoki kavar o‘simligi tabiiy holda O‘rtayer dengizi, Yevropa janubida, Kavkazda, O‘rta Osiyoda, shu jumladan, O‘zbekistonda, Pokiston va Hindistonda tarqalgan. Bu o‘simlik Fransiya, Ispaniya, Italiya, Aljir hamda Kiprda, Gretsiya va Shimoliy Amerikada madaniylashtirilgan bo‘lib, landshaftlarning bezagi hisoblanadi. O‘simlikning nomi Erondagi Dashti-Kavir cho‘li bilan bog‘liq holda atalgan. Chunki kovul bu hududlarda eng ko‘p uchraydigan o‘simlik sifatida ajralib turadi.

Dorivor o‘simlik hisoblanuvchi qushtirnoq gullari, o‘simlik ayni gullagan damlarda qirqib olinadi-da, salqin, havo almashinib turadigan joylarda quritiladi. [5] Qo‘shtirnoqdan tayyorlangan dori vositalari, preparatlar siydik haydashda (qovuqda tosh va qum mavjud bo‘lganda), qizilchada, raxitda, bosh aylanishida, yo‘talda, qorin og‘rig‘ida (me’da jarohati, spazmada), yo‘nalda iste’mol qilinsa anchagina yengillik beradi.

Ilmiy tibbiyotda qushtirnoq preparatlari keng qo‘llaniladi. Undan tayyorlangan turli xil emulsiya, dori tabletkalari bir qator kasalliklarni davolashda ishlatilmoqda. Professor V.V.Xvorovning tajribalariga ko‘ra, qo‘shtirnoqdan tayyorlangan nastoyka ayollarning klimaks davridagi qon bosimini oshishini me’yoriga keltiradigan ishonchli davo choralaridan biri ekan.

Kovul, kovar (Capparis spinosa L.) — kovuldoshlar oilasiga mansub yarim buta. Poya va shoxchalari yotiq, bargi tuxumsimon, guli yirik, oq yoki och pushti. Mevasi qizil etli, ko‘p urug‘li.

Kovul dorivor o‘simlik bo‘lishi bilan bir qatorda oziq-ovqatda ham ishlatiladi. Kovulning g‘unchali novdalari, g‘unchalari, rivojlanayotgan mevalari sirka kislotasida marinovat qilinadi hamda oziq-ovqatda «kaperslar» nomi bilan mashhur dori-darmon ko‘rinishida foydalaniladi. Hindular kovulni kobra, kabra yoki kabarra nomlari bilan atashadi hamda o‘simlik organlari qo‘shib tayyorlangan oziq-ovqatlarni yoqtirib iste’mol qilishadi.

XULOSA.

Tabobatda pishgan mevasi, barglari, novda va ildiz po‘stlog‘i ishlatiladi.

May-avgust oylarida ochilmagan g‘unchalari, barglari terib olinadi. Shu bilan birga yosh, yog‘ochlasha boshlagan novdalari va ildizining po‘stlog‘i shilib olinadi, maydalanadi hamda quyoshda yoki 50-60ºS haroratda quritiladi.Po‘stlog‘idan tayyorlangan damlama ishtaha ochuvchi ta’sirga ega. Xalq tabobatida yiringli yaralarni davolash uchun ishlatiladi. Yangi shilingan po‘stlog‘i og‘rigan tishga bosilganda ijobiy natija beradi. Ba’zan ochiq yiringli yaralarga qo‘yilganda antiseptik ta’sir qiladi. Bundan tashqari o‘simlikdan stenokardiyada, tireotoksikoz, gemorroyda, qandli diabet kasalligini davolashda ham foydalaniladi.

Ildiz po‘stlog‘idan nastoyka tayyorlash uchun 20 g shilib olingan po‘stlog‘i ustiga 0,5 l qaynagan suv quyiladi, 1-2 soat davomida tindiriladi. Kuniga uch mahal ovqatdan oldin 1/2 stakandan ichiladi. [6]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Sirli tabobat [1]
2. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil [2]
3. Agro.uz [3]
4. Kun.uz [4]
5. Botanika va o‘simlik fizialogiyasi [5]
6.Ushbu maqolada O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005) ma’lumotlaridan foydalanilgan
7. Григорьева. Е.В. Обоснование переработки гаммаруса Балтийского моря (Gammanis lacustris) методами биотехнологии: автореф. дис.канд. хим. наук. Е.В. Григорьева. - М.: ВНИРО. 2008. —24 с.
8. Быкова. В .М. Сырьевые источники и способы получения хитина и хигозана: хитин, его строение и свойства / В.М. Быкова. С.В. Немцев // Хишн и хигозан. Получение. свойства и применение. - М.: Наука, 2002. - С. 7-23.
9. Использование и получение хитозана в компании «Восток-Бор». ЗАО Восток-Бор [Электронный ресурс]. -Режим доступа: http://vostokbor.com/product/23820.htin. (Дата обращения: 14.05.2015).
10. Абдуллин В.Ф., Артёменко С .Е., Овчинникова Г.П.,Технология и свойства хитозана из панциря речного рака // Вестник СГТУ-2006-№4 (16) –Вып.1-С.18-24.

11. Karimov Sherali, & Yusupov Islombek. (2022). Apis mellifera (asalari) tarkibidan aminopolisaxaridlarni ajratib olish. Research and education, 1(6), 174–180.
12. Yusupov Islombek. (2023). Asalari (apis mellifera) tarkibidan aminopolisaxarid-xitozan ajratib olish. Universal journal of medical and natural sciences, 1(5), 57–65.